

RAQAMLAR

- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **20,4 trln. so'm**, o'sish sur'ati **93,8 %**
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati **93,6 %** ni tashkil qildi.
- shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari – **89,6 %**
- chorvachilik mahsulotlari – **97,4 %**


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 20413,6 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 93,8 % ni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 19303,7 mlrd.so'mni (93,2 %), o'rmon xo'jaligi – 964,1 mlrd.so'mni (102,4 %), baliq xo'jaligi – 145,8 mlrd.so'mni (112,3 %) tashkil qildi

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Parkent (101,7%), Oqqo'rg'on (101,5 %), Piskent (101,6) va Quyichirchiq (100,7 %) tumanlarda kuzatildi. Nurafshon (60,6 %), Olmaliq (89,5%) Chirchiq (81,5 %) Angren (92,1 %) shaharlarda esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




ViLOYATNING qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Bekobod tumanining ulushi 8.9 % ni tashkil etdi va hududlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, Parkent va Zangiota tumanlari mos ravishda 8.7 % va 8.2 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Yangiyol shahar (0,1 %), Olmaliq shahar (0,2 %) va Ohangaron shahar (0,2 %) shaharlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 93,6 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 89.6 %ni, chorvachilik mahsulotlari – 97.4 %ni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 70,1 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 19,7 % – fermer xo'jaliklariga, 10,2 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dehqonchilik

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 8523,2 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 89,6 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 44,6 %ni tashkil qildi.




**2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan
asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari**

	<i>Barcha toifadagi xo'jaliklar</i>		<i>shu jumladan</i>					
			<i>fermer xo'jaliklari</i>		<i>dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari</i>		<i>qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>ming tonna</i>	<i>o'sish sur'ati %da</i>	<i>ming tonna</i>	<i>o'sish sur'ati %da</i>	<i>ming tonna</i>	<i>o'sish sur'ati %da</i>	<i>ming tonna</i>	<i>o'sish sur'ati %da</i>
Don ekinlari	555,7	107,3	485,7	109,3	23,4	74,0	46,6	112,2
Kartoshka	319,7	88,0	25,1	57,1	272,9	92,2	21,7	92,3
Sabzavotlar	873,0	80,7	129,8	52,6	704,3	88,9	38,9	92,0
Poliz	57,5	70,4	14,2	70,4	41,7	69,5	1,6	104,5
Meva va rezavorlar	112,7	79,9	39,5	55,4	67,4	105,9	5,8	94,1
Uzum	101,8	92,9	52,9	90,0	47,0	96,5	1,9	88,9

Hosilni yig'ib olish. 2019 yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda 555,7 ming tonna (107,3%) don ekinlari ishlab chiqarildi, 319,7 ming tonna (88,0 %) kartoshka kavlab olindi, 873,0 ming tonna (80,7 %) sabzavotlar, 57,5 ming tonna (70,4 %) oziqbop poliz, 112,7 ming tonna (79,9 %) mevalar va rezavorlar, 101,8 ming tonna (92,9 %) uzum yig'ib olindi.


Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiy hajmining 85,3 %, sabzavotlarning 80,7 %, polizning 72,5 %, mevalar va rezavorlarning 59,8 %, uzumning 46,2 % ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining 87,4 % ular hissasiga to'g'ri keladi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Don ekinlari (tonna)




Kartoshka (tonna)




Sabzavotlar (tonna)




Poliz (tonna)



Mevalar va rezavorlar (tonna)



Uzum (tonna)



Chorvachilik




2019 yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 10596,7 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 97,4 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 55,4 %ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 252,9 ming tonna go'sht (2018 yilning yanvar-dekabr nisbatan -4,3 % ga kam), 907,5 ming tonna sut (2018 yilning yanvar-dekabr nisbatan 1,2% ga ko'p), 1417,8 mln.dona tuxum (5,4 %ga), 2,0 ming tonna jun (-3,1 %ga) ishlab chiqarildi.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %
Go'sht tirik vaznda, ming t	252,9	95,7	9,8	91,0	211,3	95,2	31,8	100,9
Sut, ming t	907,5	101,2	53,6	115,0	824,1	101,2	29,8	84,2
Tuxum, mln. dona.	1417,7	105,4	17,2	39,9	786,2	102,8	614,3	114,3
Jun, ming t	2,0	96,9	0,3	103,8	1,6	95,8	0,1	92,3
Asal, tonna.	475,1	95,8	36,0	89,6	374,1	99,1	65,0	82,8
Baliq, ming.tonna	8,5	86,4	2,3	112,7	0,02	19,5	6,2	80,1


Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi




Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 83,6 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 90,8 %i, tuxumning 55,5 %i, junning 81.2 %i, asalning 78,7 %i ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga Baliqning 72,9 %i qishloq xojaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Go'sht (ming t)




Sut (ming t)




2019 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Tuxum (ming. dona)




Jun (tonna)



Asal (tonna)



Baliq (tonna)



Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2020 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 914,3 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 400,1 ming boshga, qo'y va echkilar– 1032,8 ming boshga, parrandalar – 19586,7 ming boshga etdi.


2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar boshsoni – 16,2 ming boshga (1,8 %ga), shu jumladan sigirlar– 7,4 ming boshga (1,9 %ga), qo'y va echkilar – 15,2 ming boshga (1,5 %ga), parrandalar – 1383,3 ming boshga (7,6%ga) ko'paydi.

2020 yilning 1 yanvar holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %
Yirik shoxli qoramollar	914,3	101,8	75,1	94,7	797,4	103,1	41,8	92,3
shu jumladan sigirlar	400,1	101,9	24,3	89,0	362,9	103,4	12,9	89,9
Qo'y va echkilar	1032,8	101,5	287,8	100,3	686,7	102,7	58,3	94,2
Parrandalar	19586,7	107,6	424,9	47,0	9651,5	117,7	9510,3	104,5

2020 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,2 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 87,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 4,6 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 27,9 %i fermer xo'jaliklariga, 66,5 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,6 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 2,2 %i fermer xo'jaliklariga, 49,3%i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 48,6 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha ulushi




Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2020 yilning 1 yanvar holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parandalar bosh soni

Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)




shundan, sigirlar (ming bosh)



Qo'y va echkilar (ming bosh)



Parrandalar (ming bosh)





Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

- 71-230-86-68
- 71-230-86-69